



**TARJIMADA MILLIY MINTALITETGA XOS AN'ANALARINING
IFODA ETILISHIDA TARJIMONNING MAHORATI (IBROHIM
G'OFUROV TARJIMALARI MISOLIDA)**

Arabova Gulsanam Saburovna

Ma'mun universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola atoqli adabiyotshunos va tarjimon Ibrohim G'ofurovning tarjimashunosligida milliy mentalitet masalasi, tarjima asarda milliy koloritni yaratishga yondashuvi tahlil qilinadi. Tarjimonning Shekspir, Dante, Tolstoy, Xeminguey kabi mualliflarning asarlarini o'zbek tiliga moslashtirishda milliy ruh, xalq dunyoqarashi, qadriyatlar va madaniy tafakkur elementlarini qanday tarzda uyg'unlashtirgani o'rganiladi. G'ofurov tarjimalarida milliy til ifodasi, obrazlar sistemasining mahallilashuvi, mental tasavvurlarni saqlab qolish kabi jihatlar asosiy e'tiborda bo'ladi.

Kalit so'zlar: Ibrohim G'ofurov, tarjima san'ati, milliy mentalitet, kolorit, madaniy moslashuv, tarjima nazariyasi, badiiy tafakkur, o'zbekona ifoda, xalq ruhiyati, G'arb adabiyoti.

Аннотация: В данной статье представлен аналитический анализ проблемы национального менталитета в переводах известного литературоведа и переводчика Иброгима Гафурова, имеющего национальный колористический подход к переводимому произведению. В нем будет рассмотрено, как переводчику удалось гармонизировать национальный дух, народное мировоззрение, народный язык и культурное мышление при адаптации произведений таких авторов, как Шекспир, Дэнни, Толстой и Хемингуэй, на узбекский язык. В творчестве Гафурова перевод направлен на выражение национального языка, формирование системы образов, сохранение ментальных образов.

Ключевые слова: Иброхим Гафуров, искусство перевода, национальный менталитет, kolorit, культурная адаптация, теория перевода,



художественная мысль, узбекское выражение, народный дух, западная литература.

Abstract: *This article is an analytical analysis of the issue of national mentality in the translation of the famous literary critic and translator Ibrahim Gafurov, which has a national coloristic approach in the translation work. It studies how the translator harmonized the national spirit, folk worldview, people's language and cultural thinking in adapting the works of authors such as Shakespeare, Danny, Tolstoy, Hemingway to the Uzbek language. In Gafurov's works, the main emphasis is on translation, such as national language expression, the formation of a system of images, and the preservation of mental images.*

Key words: *Ibrahim Gafurov, the art of translation, national mentality, color, cultural adaptation, translation theory, artistic thinking, Uzbek expression, folk spirit, Western literature.*

Tarjimashunoslik eng avvalo millatlararo madaniy aloqalarni rivojlantirishda, turli xalqlarning adabiy merosini o'zaro boyitishda muhim rol o'ynaydi. Har bir tarjimon o'zining badiiy didi, madaniy konteksti va til bilimlari asosida asarni yangi tilga ko'chiribgina qolmay o'z tilidagi yangi bir asarni dunyoga keltiradi desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbek tarjimashunosligida katta ahamiyatga ega tarjimonlardan biri sifatida Ibrohim G'ofurovning o'rni alohida e'tiborga loyiqdir. U o'zbek tarjimonligi tarixida nafaqat buyuk adabiyot namoyandalarini o'zbek tiliga tarjima qilgani, balki tarjimada milliy mentalitetni saqlab qolish, madaniy moslashuv jarayonlariga katta ahamiyat bergani bilan ajralib turadi.

Tarjimashunoslik insoniyat madaniy taraqqiyotining ajralmas bir qismi bo'lib, xalqaro muloqot, ilm-fan, san'at, madaniyat va adabiyot almashinuvi jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, adabiy tarjima orqali bir xalqning badiiy tafakkuri boshqa bir millatga yetkaziladi. Shu ma'noda tarjimonlar nafaqat til ko'prigi, balki madaniyatlar, urf-odatlar, tafakkur tizimlari orasidagi bog'lovchi kuch vazifasini bajaradilar. O'zbek adabiyoti tarixida tarjimonlik an'analari qadimdan mavjud bo'lib, XX asr va undan keyingi davrlarda bu an'ana yangi bosqichga ko'tarildi. Ayniqsa, istiqlol davrida tarjimonlik faoliyati adabiyot taraqqiyoti bilan



uzviy bog‘lanib, o‘zbek kitobxonini jahon badiiy tafakkurining eng nodir namunalaridan bahramand qilishda muhim vositaga aylangani sir emas.

Ibrohim G‘ofurov – o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi sohasidagi yirik arbob bo‘lishi bilan birga, iste’dodli tarjimon sifatida ham o‘z izini qoldirgan ijodkordir. U tarjima sohasidagi sermahsul mehnati, poetik asarlarni jonli, ohangdor va milliy ruhda o‘zbek tiliga ko‘chira olganligi bilan ajralib turadi. G‘ofurov tarjimalarida nafaqat muallif uslubini saqlab qolish, balki asarning ichki falsafasini, ruhiy holatini, estetik ohangini milliy tafakkur mezonlariga mos holda ifodalashga intilish ustuvor o‘rin tutadi. Uning tarjima faoliyati tarjimonlik maktabi, ya’ni adabiy merosni o‘zbek tiliga badiiy jihatdan chuqur va mukammal ko‘chirishda bir ibrat maktabi sifatida qaraladi.

U tarjima qilgan asarlar orasida jahon adabiyotining buyuk durdonalari Dante Aligyerining “Ilohiy komediya”si, Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo”, “Telba”, “Qimorboz”, Mopassanning “Azizim”, Chingiz Aytmatov, Jeyms Joys, Pushkin, Lermontov, Tyutchev, Rilke, Shiller kabi mumtoz shoirlarning she’riy merosi, xalqaro adabiyotda yuksak baholangan doston va poemalar alohida o‘rin tutadi. Mutarjim bu asarlarni o‘zbek o‘quvchisi ruhiyatiga mos, milliy ohangda qayta yaratishga harakat qilgan. Shu bois uning tarjimalari o‘zbek adabiy tilining boyligini, badiiy ifoda imkoniyatlarini namoyish etuvchi yorqin namunalar sifatida qaraladi. Ibrohim G‘ofurov o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi sifatida adabiy tanqid, nasr, publitsistika, tarjimonlik va adabiyotshunoslik yo‘nalishlarida samarali faoliyat yuritgan ijodkordir. Aynan tarjimonlik faoliyati esa uning ijodiy portretida muhim va o‘ziga xos o‘rin egallashi yuqoridagi buyuk asarlarning muvaffaqqiyatli tarjimasidir.

U tarjimon sifatida, eng avvalo, adabiyotga fidoyilik, tarjimada mas’uliyat va badiiylikni ustuvor deb bildi. Tarjimani shunchaki tilshunoslik faoliyati emas, balki ijodiy jarayon – ruhiy va estetik uyg‘unlikni ta’minlovchi badiiy mehnat sifatida ko‘rdi. Shuning uchun ham uning tarjimalari hayotiy, ohangdor va adabiy mazmun bilan to‘yingan. U tarjima jarayonida muallif uslubini qayta yaratish, ruhiy holatlarni milliy obrazlar bilan uyg‘unlashtirish, har bir so‘z, ibora va gap qurilishida san’atkorona yondashuvga e’tibor qaratgan.



Ibrohim G'ofurov tarjimonlik faoliyatini XX asrning 60-yillarida boshlab, keyinchalik bu sohada yirik nomlardan biriga aylandi. U tarjima qilgan asarlar turli janrlarda – she'riyat, nasr, drama, esse, aforizmlar shaklida bo'lib, bu janrlar doirasida G'ofurov o'z tarjimonlik maktabini yaratdi. Tarjimada adib uslubi o'ziga xos. U nafaqat so'zlar, balki konnotatsiya, ruhiy intonatsiya, ritmik muvozanatni saqlab qolishga harakat qilgan. Bu esa uning tarjimalarini matnshunoslar va adabiyotshunoslar tomonidan badiiy qimmatga ega, mustaqil ijod namunasi sifatida baholanishiga olib kelgan.

Bundan tashqari, G'ofurov tarjimalarining o'ziga xos jihati – milliy til imkoniyatlarini maksimal darajada ishga solganidir. U o'zbek tilining poetik salohiyatiga ishonib, tarjimada milliy urf, xalqona iboralar, maqollar, fonetik musiqiylikdan keng foydalangan. Ibrohim G'ofurov tarjima qilgan asarlar o'zbek adabiyotiga nafaqat yangi badiiy tajriba olib kirdi, balki tarjimonlik maktabi sifatida izlanishlarga, tarjima madaniyatining yuksalishiga xizmat qildi. U tarjima jarayonini tahlil qilish, asliyat bilan qiyoslash, milliy ruhni anglash nuqtai nazaridan chuqur estetik jarayon sifatida ko'rdi. Bu borada olimning o'zi esa bu borada: “Tilmochlar ishlarning o'zaro muvofiq, adolatli bitishi va xalqlarning totuvliklariga xizmat qiladilar. Ular insoniyat qavmlarini turli jaholat balo-ofatlari, behuda qirg'inlardan saqlashga sa'yi-harakat qilardilar¹.”

Ibrohim G'ofurov tarjimalarining eng muhim xususiyatlaridan biri – ularning badiiy jihatdan nafis, estetik jihatdan mukammal va ma'naviy jihatdan boyligidir. Tarjima faqat so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri ko'chirilishi emas, balki asarning ichki dunyosi, muallif ruhi, ma'naviy-falsafiy qatlamlari bilan birga o'zlashtirilgan holda yetkazilishidir. G'ofurov tarjimalari aynan shu tamoyil asosida amalga oshirilgani bois o'zbek tarjimonlik maktabining yuksak namunasi sifatida e'tirof etiladi. She'riyat tarjimasida eng muhim jihatlardan biri — ritmik tuzilish, vazn va ohangni saqlab qolishdir. Ibrohim G'ofurov tarjima qilgan Pushkin, Lermontov, Rilke yoki Tyutchev kabi shoirlarning she'rlarida aynan mana shu poetik uyg'unlik ustuvor o'rinda turadi. U vaznni saqlagan holda asliyatdagi emotsional kuch va musiqiylikni

¹ I. G'ofurov va boshqalar. “Tarjima nazariyasi”. Tafakkur bo'stoni – Toshkent. 2012. – B 22.



o‘zbek tili imkoniyatlari bilan ifodalaydi. Masalan, Pushkinning “Qor malikasi” she’ri tarjimasida G‘ofurovning ohang, izchil ritm, so‘z tanlashdagi aniqlik va betakrorlik mahorati yaqqol ko‘zga tashlanadi. U bunday she’rlarni nafaqat badiiy, balki ruhiy holat va obrazli tafakkurga sodiq holda ko‘chira oladi. G‘ofurov tarjima qilgan har bir asarda asliyat ruhi to‘laqonli seziladi. U tarjimada literal (so‘zma-so‘z) yondashuvdan ko‘ra, semantik va konnotativ (ma’no qatlamlariga oid) yondashuvni afzal ko‘radi. Bu orqali asar muallifining ichki falsafasi, estetik qarashlari o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarli va qabul qilinadigan shaklda ifodalanadi.

Tarjimada ma’naviylik masalasi, ayniqsa diniy-falsafiy yoki ijtimoiy-falsafiy mazmunga ega asarlar tarjimasida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ibrohim G‘ofurov “Ilohiy komediya” tarjimasida nafaqat diniy obrazlar, balki axloqiy-estetik tafakkurni, inson va Yaratgan o‘rtasidagi falsafiy munosabatlarni o‘zbek tilida ruhiy uyg‘unlik bilan ifodalaydi. Ushbu tarjimada “Jahannam”, “A’rof”, “Jannat” tushunchalari milliy mentalitetga mos, o‘quvchiga tushunarli va mushohada uyg‘otuvchi ohangda berilgan. G‘ofurov Dante obrazlarini o‘zbek xalq og‘zaki ijodi va tasavvufiy tafakkur elementlari bilan uyg‘unlashtirishga intiladi. Bu esa tarjimani nafaqat ma’no, balki madaniy kontekstda ham boyitadi.

G‘ofurov tarjima tilini yuksak estetik mezonlar asosida quradi. U so‘zlar zanjirini emas, balki ruhiy holat, emotsiya, kontekst va uslub uyg‘unligini bir butun badiiy yaxlitlikda yaratishga intiladi. Har bir ibora ustida ishlaganda u nafaqat lug‘aviy, balki poetik ma’noni ham hisobga oladi. Shu bois, uning tarjimalari o‘zbek tili poetikasining imkoniyatlarini to‘liq namoyon etuvchi namunalardir. Olim tarjimalari chuqur adabiy, madaniy va falsafiy qatlamlarga ega bo‘lib, ular orqali ikki asosiy tamoyil uyg‘unligini ko‘ramiz: milliylik va universallik. Bu ikki tushuncha ko‘pincha bir-biriga ziddek ko‘rinsa-da, G‘ofurov ularni o‘z tarjima amaliyotida muvozanatli ravishda birlashtira oldi. Bu hodisa o‘zbek adabiy tafakkurining jahon madaniy maydonida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishiga sabab bo‘ldi. G‘ofurov uchun tarjimaning asosiy maqsadi — jahon adabiyotining nodir durdonalarini o‘zbek o‘quvchisiga ona tili ruhiyatiga yaqinlashtirib yetkazishdir. Shu sababli, u tarjimada milliy ruh, xalqona ifoda, o‘zbek adabiy uslubi va folklorona estetikani ustuvor



qo'yadi. G'ofurovning Pushkin, Dante, Mopassan yoki Xeminguey asarlarini o'zbek tiliga mos ohangda, tabiiy va beg'ubor tarzda tarjima qilishi, aynan mana shu milliylik mezonlariga asoslangan. Masalan, Brodskiyning ekzistensialistik she'rlari G'ofurov tarjimasida xalqona so'z boyligi, badiiy tafakkur va poetik obrazlar orqali o'zbek o'quvchisiga yaqinlashtirilgan. U asarda mavjud murakkab tafakkurni mutolaa qilishni osonlashtirish uchun turkiy obrazlar, maqollar, o'xshatishlar va xalqona poetik inversiyalardan foydalanadi.

Tarjima asarlarda milliy ruhiyatga sodiqlik bilan birga, universallik — ya'ni, butun insoniyatga xos bo'lgan muammolar, g'oyalar va qadriyatlar ham muhim o'rin egallaydi. Asarlarning ko'pi umuminsoniy mohiyatga ega bo'lib, diniy, axloqiy, falsafiy savollarni ko'ndalang qo'yadi. Masalan, Dante Aligyerining "Ilohiy komediya" asari inson hayotining abadiylik, axloq, jazoga loyiq xatti-harakatlar, ilohiy rahmat va tavba kabi masalalarini yoritadi. G'ofurov bu asarni tarjima qilishda o'zbek o'quvchisiga tanish bo'lgan diniy-falsafiy ifodalarni topishga intilgan bo'lsa-da, asarning universallik jihatini – barcha zamon va makonlarga xos insoniy g'am-alam, ilohiy adolat, najot g'oyalarini ham muvaffaqiyat bilan yetkazgan.

G'ofurov tarjimalari o'zbek adabiyoti bilan doimiy mushohada holatidadir. U tarjima qilgan asarlar til jihatidan ham, mazmun jihatidan ham o'zbek adabiy makonida yangicha talqin etiladi. Shu bois, uning tarjimalari aksariyat hollarda o'zbek yozuvchilari, shoirlari uchun ham badiiy maktab vazifasini bajargan. Ular o'zbek tilining boy imkoniyatlarini ko'rib, tarjimaning ham milliy adabiyotga ta'sir qiluvchi ijodiy jarayon ekanligini anglaganlar.

G'ofurov faoliyati orqali o'zbek adabiyoti Sharq va G'arb madaniyati o'rtasida vositachilik qilish darajasiga yetdi. Tarjima jarayonida u Sharq donishmandligi, islom falsafasi va turkiy dunyo tasavvurini G'arb adiblarining fikr va kechinmalari bilan bir zamin ichida uyg'unlashtirdi.

Masalan, G'ofurov Lorka yoki Brodskiyning tarjima qilganda ulardagi ichki iztirob, inson ruhiyatining konfliktli holatlarini Alisher Navoiy yoki Bobur poetikasiga xos ifodalar bilan berishga harakat qiladi. Bu uslubiy uyg'unlik nafaqat



tarjimaning madaniy darajasini, balki Gʻofurovning chuqur intellektual va ruhiy tayyorgarligini koʻrsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarjima asarlar oʻzbek adabiy tafakkuri va milliy ruhini jahon adabiyoti bilan uygʻunlashtirishda noyob hodisa hisoblanadi. U Gʻarb mualliflarining asarlarini tarjima qilishda nafaqat til, balki xalqning mentaliteti, ruhiyati va estetik qarashlarini inobatga olgan holda, oʻzbek oʻquvchisi uchun yaqin va tushunarli shaklga solgan. Gʻofurov tarjimalarida obrazlar, iboralar va madaniy ramzlar milliy kontekstda jonlanadi, bu esa tarjimaning hayotiyligini va milliy madaniyatga xosligini taʼminlaydi. Shunday qilib, Gʻofurov nafaqat tarjimon, balki milliy tafakkur targʻibotchisi sifatida ham oʻz oʻrnini mustahkamladi. Uning asarlari hozirgi va kelajak tarjimonlari uchun ibrat maktabi boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gʻofurov, Ibrohim. Tarjimaning iztiroblari. — Toshkent: Yozuvchi nashriyoti, 2001. — 240 b.
2. Gʻofurov, Ibrohim. Shekspir: Hayot, ijod va tarjima. — “Sharq yulduzi” jurnali, 1994, №4. — B. 85–91.
3. Qoʻchqorova Z. Tarjimada milliy mentalitet muammolari. — Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2016. — 112 b.
4. Roʻziyev H. Tarjimashunoslik asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. — 180 b.
5. Karimov A. Badiiy tarjima va madaniy moslashuv. — “Filologiya masalalari” ilmiy toʻplami, 2015, №2. — B. 55–62.
6. Venuti, Lawrence. The Translator’s Invisibility: A History of Translation. — London: Routledge, 1995. — 312 p.
7. Saidov A. Milliy tafakkur va badiiy tarjima: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Akademnashr, 2019. — 148 b.
8. Nurmatov B. Tarjimaning madaniy aspektlari. — “Oʻzbek tili va adabiyoti” jurnali, 2023, №1. — B. 44–50.
9. Shakespeare, William. Romeo and Juliet. Edited by René Weis. — Oxford: Oxford University Press, 2003. — 336 p.